

**ANTONIM FE'LLARNING BADIY MATNDAGI O'RNI
(SA'DIY SHEROZIYNING "GULISTON" ASARI MISOLIDA)**

Bibinur Medesheva,
TDSHU tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola hozirgi kunda ko'p tadqiqotlar olib borilayotgan badiiy asar tili tahliliga bag'ishlangan bo'lib, Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asaridagi antonim fe'llarning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. "Guliston" asaridagi antonim fe'llarni tahlil qilish yozuvchi badiiy tafakkurini o'rganish imkonini beradi, shuningdek, asarning ta'sirchanligining oshishiga antonim fe'llarning ahamiyatini ochib beradi.*

Tayanch so'zlar: *badiiy asar tili tahlili, "Guliston" asari, fe'l, stilistik tahlil, antonimlar, antonim fe'llar.*

АННОТАЦИЯ: *Данная статья посвящена анализу языка художественного произведения, являющемуся сегодня актуальным направлением многих исследований; в ней рассматриваются стилистические особенности антонимичных глаголов в произведении Саади Ширози «Гулистон». Анализ антонимичных глаголов в «Гулистоне» дает возможность изучить художественное мышление писателя, а также раскрывает роль антонимичных глаголов в повышении экспрессивности произведения.*

Ключевые слова: *анализ языка художественного произведения, произведение «Гулистон», глагол, стилистический анализ, антонимы, антонимичные глаголы.*

ANNOTATION: *This article is devoted to the analysis of literary language, a subject of extensive contemporary research, and examines the stylistic features of antonymous verbs in Saadi Shirazi's 'Guliston'. The analysis of antonymous verbs in 'Guliston' allows for the exploration of the author's artistic thinking and elucidates the significance of these verbs in enhancing the work's impact.*

Keywords: *literary language analysis, "Guliston," verb, stylistic analysis, antonyms, antonymous verbs.*

Ma'lumki, badiiy matn tili tahlilida muallif tomonidan qo'llangan so'zlarning shakl va ma'no munosabatlari muhim o'ringa ega. Yozuvchi badiiy maqsadini to'g'ri va estetik jihatdan jozibador ifodalash uchun doimiy iste'moldagi so'zlarni emas, balki bo'yoqdor shaklidagi so'zlarni qo'llashni ma'qul ko'radilar. Badiiy asar ta'sirchanligi va ifodaliligini ochib berishda zid ma'noli so'zlar muhim stilistik vazifa bajaradi. Sharq adabiyotida bir necha asrlardan buyon mazkur so'z imkoniyatidan keng va samarali foydalanib kelingan.



Borliqdagi barcha narsa-hodisalar o'rtasida amal qiluvchi aloqa-munosabatlardan biri zidlanish bo'lib, u til sathi birliklari uchun ham xos. Til birliklari munosabatida zidlanishning turli ko'rinishlari kuzatiladi. Zidlanishning keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri antonimiyadir [3, 80].

Antonimlar doim lingvistik tahlil predmetlaridan bo'lgan va lug'at tuzilishida ham ma'lum o'ringa ega. Antonimlar kuchli badiiy-tasviriy vositalar sifatida nutqni jonlantiradi, uni ishonarli va obrazli qiladi, ifodalarning ta'sirchanligini oshiradi. Shuningdek, antonimlarning stilistik funksiyasi nutqning ma'lum shakllarida ko'rinib, tilning estetik funksiyasini yuzaga chiqarish uchun foydalaniladi hamda nutqning emotsionalligini oshirishga xizmat qiladi. Antonimlar asosan xalq og'zaki ijodida, xususan, maqol va matallarda katta miqdorda uchraydi. Badiiy asarlarda ham antonimlardan munosib foydalanish muhim ahamiyatga ega. Sababi ularning yordami bilan asar muallifi o'z g'oya va fikrlarini aniqroq, tushunarliroq hamda badiiy bo'yoqdor ifodalay oladi. Bu esa har qanday asarning qiymatini oshirib, yengil tushunilishini ta'minlaydi, yodda qolishini osonlashtiradi. Hayotiy vaziyatlarni badiiy shaklda ifodalashda antonimlar yozuvchi uchun eng muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Antonim fe'llar vositasida yozuvchi o'z asarlari lug'at tarkibini boyitadi, ma'no ifodalashning yangi usullarini kashf qiladi, obrazlar va holatlar ularning oson tushunilishi uchun solishtiriladi va shuningdek, antonimlar stilistik vosita sifatida ham foydalaniladi. Ustoz Sa'diy fe'llarni tanlaganida, badiiy ekspressivlik va ta'sirchanlikni oshirish, o'quvchiga o'zi nazarda tutgan g'oyasini aniq yetkazib berish va oson tushunilishini ta'minlash maqsadida zid ma'noli fe'llardan keng foydalanganligi ko'rinadi. hikoyatlarda mavzuga mos ravishda buyruq-istak, nasihatni anglatuvchi antonimlardan o'quvchini odobga chaqirish, maslahat ma'nolarini yetkazishda; muallif ko'rgan-kechirganlarini so'zlab berishida; nozik, yumoristik hazilni; insonning umumiy holatini; qahramonning ichki kechinmalarini; qahramonning ichki dunyosini: psixologiyasi, anglashlari, Vatan tuyg'usi kabilarni ifodalashda foydalanilgan.

“Guliston” asari tilida alohida keladigan antonim fe'llar muhim stilistik ahamiyatga ega bo'lib, asarda foydalanilgan leksik antonimlarning asosiy qismi bir gap doirasida, shuningdek, bir hikoyat ichida alohida gaplarda ham uchraydi.

Ikki sodda fe'l bilan ifodalangan leksik antonimlar. Bu turga kiruvchi zidlik munosabatini tashkil qiluvchi ikkita fe'llar ham sodda fe'l bilan ifodalanadi, masalan:

Antonim fe'llar ba'zi o'rinlarda bir zamon doirasida, ba'zi o'rinlarda turli zamon doirasida uchraydi:

تا برسید به کنار آبی که سنگ از صلابت او بر سنگ می آمد و آوازش به فرسنگ میرفت

Suvning bo'yiga kelganida uning salobatidan tosh toshga tegar edi va ovozi uzoqlarga yetar edi.

Keltirilgan misolda آمدن [âmadan] – kelmoq va رفتن [raftan] – ketmoq fe'llari o'zaro zid ma'noli fe'llardir. Gapdagi antonim fe'llarning (aynan tarjima: tosh toshga



kelardi va ovozi uzoqlarga ketardi), ayniqsa, jonsiz predmetlar bilan qo'llash orqali ularni jonlantirish va gapda ega vazifasini yuklash Sa'diyning fe'llardan yuksak mahorat bilan foydalana olish uslubining yorqin namunasidir. Bu gapda fe'llar quyidagicha vazifa bajarmoqda: برسيد [berasid] – oddiy o'tgan zamon hikoyaviylikni, مي آمد [mêâmad] o'tgan zamon davom fe'li – uzluksizlik, jarayonlilikni (ko'p marta takrorlanib turishini), ميرفت [mêraft] tasvirning jonlilikini. Antonim juftlik kontekstdan tashqarida ham leksik antonimlikni tashkil etadi.

Quyidagi misolda ham jismoniy faoliyat fe'llarining jonsiz (shuningdek, mavhum) otlar bilan ham qo'llanilib, matn mavzusini aniqroq ochib berishga xizmat qilishi kuzatiladi:

فتنه بنشست و نزاع برخاست

Fitna mahv qilindi (yo'q qilindi), ammo nizo yuzaga keldi (so'zma so'z: Fitna o'tirdi, nizo turdi).

Misolda نشست [nešastan] – o'tirmoq; برخاستن [barxâstan] – o'rnidan turmoq; ko'tarilmoq fe'llari o'zaro zid ma'noli bo'lib, mazkur fe'llar inson va jonzotlarning harakatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo bu o'rinda jonsiz predmetlar [فتنه] [fetna], [نزاع] [nezâ]ga qo'shilib, ma'no aniqligi orttirilishi uchun foydalanilmoqda, shuningdek, badiiy ekspressivlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Aka-ukalarning o'zaro munosabati ifodalanayotgan va ularni murosaga keltirish tasvirlanayotgan bu misolda leksik antonimlarning mavhum otlarga qo'shilishi bilan ma'no sodda va aniq tushuntirilib, antonim juftlik o'ziga xos usulda va chiroyli qo'llangan. Bu esa tanlangan antonim fe'llar vaziyatning hal bo'lishi tasvirini to'liq ochib berishga, mavhum hodisalarni jonlantirish orqali vaziyatni ochishga, fikrni chuqurlashtirishga hamda qisqa iborani hikmatli va kuchli badiiy ifoda darajasiga chiqishiga xizmat qilgan.

لاجرم دشمني صعب روي نمود، همه پشت دادند.

Muqarrar ravishda kuchli dushman yuz ko'rsatganda, hamma orqa o'girdi.

پشت دادن [pošt dâdan] – orqa bermoq, o'girilmoq fe'li “qochmoq” ma'nosida kelmoqda, shaxslarning vaziyatini ko'rsatishda روي نمودن [rôy namudan] – yuzlashmoq, ko'rinish bermoq fe'li bilan antonimlikni hosil qilmoqda. Podshohning bee'tiborligidan yuzaga kelgan vaziyat va uning natijasi fe'llar vositasida achchiq tanqid va ibrat ohangini ifodalanmoqda.

Kontekstual antonimlar. Kontekstual antonimiya haqida o'zbek olimi R.Shukurov shunday yozadi: “Tilimizdagi ko'pgina so'zlar to'g'ri ma'nosi bilan ham, ko'chma ma'nosi bilan ham antonim bo'la olmaganlari holda, ular nutqda bir-birlari bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma'nolarda qo'llanilishi mumkin” [5, 54]. Shu kabi “Guliston” asarida ham kontekst doirasida uchrovchi antonim fe'llar qo'llanilishi kuzatildi:

يكي از ملوك را شنيدم كه شبي در عشرت روز كرده بود.

Podsholardan biri haqida eshitdimki, **tunni** ishratda o'tkazib **kun** kechirar edi.



Bir podshohning kundalik turmushini ifodalab keladigan hikoyatdan olingan bu misolda روزکردن [rôz kardan] – kun o‘tkazmoq, yashamoq ma’nosidagi fe’l va روز so‘zi شب [šab] tun so‘zi bilan antonimlikni hosil qilmoqda. Kun va tun so‘zlarini qo‘llash bilan butun hayoti qanday o‘tayotgan podshohning ichki va tashqi dunyosi tasviri ochib berilgan. Bu o‘rinda fe’lning ot qismi antonimdir.

به اعتماد آنکه داند که نگویم، پس چرا همی پرسید؟

Aytmasligimga ishonching komil bo‘lsa ham nega mendan so‘rarsizlar?

Bu gapda گفتن [goftan] – aytmoq, demoq fe’li va پرسیدن [porsidan] – so‘ramoq fe’li o‘zaro antonim bo‘lib kelmoqda. Ya’ni kontkestda bu fe’llar o‘zaro antonimlikni tashkil etmoqda. Leksik antonimlardan farqi shu o‘rinda ko‘rinadiki, aslida پرسیدن [porsidan] – so‘ramoq fe’liga antonim fe’l جوات دادن [jawâb dâdan] – javob bermok fe’li bo‘ladi. Kontekstda esa antonim fe’l sifatida گفتن [goftan] – demoq fe’li olingan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, asardagi antonim fe’llar ko‘lami keng bo‘lib, asarning qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Antonim fe’llar yordamida badiiy matnning emotsional-ekspressivligi sezilarli darajada ortgan. Asarning oson tushunilishi va ko‘zlangan maqsad kitobxonga oson yetkazilishini ta’minlagan. Antonimlar yordamida voqea-hodisalarni o‘zaro zid tarzda qo‘llash, hikoyatlar mohiyatini ochish yozuvchi uslubining o‘ziga xos jihati ekanligini ko‘rsatib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. شیخ مصلح الدین سعدی. گلستان. ص. 105.
2. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – 656 с.
3. Лутфуллаева Д., Сайидирахимова Н. Ўзбек тилида синтактик антонимларни белгилаш мезонлари// АДУ илмий хабарнома. – Андижон, 2016. – №2. – Б. 80-82.
4. Содиқова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент, 1975. – 104 б.
5. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент, 1977. – 153 б.